

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/11 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOY MUAMMOLARINING IJTIMOY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamonova</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVİY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javliyeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

MECHANISMS FOR INTEGRATING ADVANCED INTERNATIONAL PRACTICES INTO PRESCHOOL EDUCATION WITHIN THE NATIONAL MODEL

Kholmirezayeva Gulbakhor Bakhadirovna

Lecturer at the University of Economics and Pedagogy

Abstract. The article analyzes the core principles of the preschool education system in the United Kingdom — child-centered approach, play-based learning, and experiential learning. It examines the possibilities of integrating these principles into Uzbekistan's preschool education system and highlights mechanisms for harmonizing them with national values and pedagogical traditions.

Keywords: preschool education, UK experience, integration, innovative approach, child-centered, play-based learning, Uzbekistan education system.

MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEKANIZMLARI

Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna

University of economics and pedagogy o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Buyuk Britaniya maktabgacha ta'lim tizimining asosiy tamoyillari — “child-centered approach”, “play-based learning” va “experiential learning” — tahlil qilinadi. Ularning O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimiga integratsiya qilish imkoniyatlari, milliy qadriyatlar va pedagogik an'analar bilan uyg'unlashtirish mexanizmlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, Buyuk Britaniya tajribasi, integratsiya, innovatsion yondashuv, child-centered, play-based learning, O'zbekiston ta'lim tizimi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N65>

Kirish. Buyuk Britaniya maktabgacha ta'lim tizimi jahondagi eng samarali modellardan biri hisoblanadi. Uning asosiy konseptual negizi bola shaxsini markazga qo'ygan “child-centered approach”, erkin o'yin orqali ta'lim (play-based learning), tajribaviy faoliyat orqali rivojlanish (experiential learning) va teng imkoniyatlar tamoyiliga tayanadi. Britaniyadagi “Early Years Foundation Stage (EYFS)” dasturi bola rivojlanishining barcha yo'nalishlarini — kognitiv, ijtimoiy, emotsional va jismoniy sohalarni — bir butun tizimda qamrab oladi. Ushbu yondashuv maktabgacha ta'limni faqatgina bilim berish emas, balki mustaqil fikrlash, ijodkorlik, ijtimoiy faollik va madaniy integratsiyani rag'batlantiruvchi jarayon sifatida ko'radi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning “Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” va “Yangi O'zbekiston strategiyasi”da ta'limni inson kapitali rivojining asosiy bo'g'ini sifatida qayta ifodalash, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish, ta'lim muhitini raqamlashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish kabi vazifalar belgilangan. Bu jarayonlarda Britaniya tajribasi, ayniqsa, bola rivojlanishini pedagogik va

psixologik jihatdan individual yondashuv asosida tashkil etish tizimi, O'zbekiston maktabgacha ta'limini modernizatsiya qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, xorijiy tajribani milliy muhitga integratsiya qilishda bir qator murakkab masalalar yuzaga keladi: milliy mentalitet, madaniy an'analar, oilaviy qadriyatlar va ijtimoiy muhitning o'ziga xos xususiyatlari bu jarayonda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ilg'or tajribalarni mexanik ravishda ko'chirish emas, balki ularni milliy model bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llash zarur.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Buyuk Britaniya maktabgacha ta'lim tizimining ilg'or pedagogik konsepsiyalari tahlil qilsak, ularni O'zbekiston maktabgacha ta'limiga mos ravishda integratsiya qilishning innovatsion, metodologik va madaniy asoslari ochib berilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, maktabgacha ta'limda bola shaxsini o'sishning markaziga qo'ygan yangi "innovatsion konseptual model" taklif etiladi. Bu model Britaniya tajribasiga suyanan holda, milliy an'ana va mentalitet bilan uyg'unlashgan holda ishlab chiqiladi hamda kelgusida ta'lim sifati va inson kapitali rivojiga xizmat qiladi.

Buyuk Britaniya ta'lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish masalasi umumiy ta'limning markaziy qismi sifatida qaraladi. Bu tizimning ilmiy-metodologik asoslari bola shaxsini markazga qo'ygan pedagogik paradigmaga, ya'ni *child-centered education* yoki bolani markazga qo'ygan ta'lim konsepsiyasiga tayanadi. Ushbu yondashuv ta'lim nazariyasi tarixidagi asosiy insonparvar pedagoglar — Jon Dyui, Jan-Jak Russo va Meri Montessori asarlariga suyanadi.

Jon Dyui o'zining "Demokratiya va ta'lim" asarida bolani ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida talqin qilib, bilim insonning real tajribasi asosida shakllanishini ta'kidlaydi [1;112-b]. Jan-Jak Russo esa "Emil yoki tarbiya haqida" asarida tabiiy rivojlanish tamoyilini ilgari surib, bolaning individual ehtiyojlari va tabiiy rivojlanish bosqichlari ta'limning asosiy mezonlari bo'lishi kerakligini qayd etadi [2;86-b]. Meri Montessori o'zining ilmiy-eksperimental pedagogikasi orqali bolaga erkinlik, mustaqillik va tabiiy faoliyat orqali o'rganish имкониятини беришни мактабгача та'лимнинг асосий фалсафий йўналиши сифатида белгилайди [3;143-b].

Mazkur pedagogik g'oyalar asosida shakllangan *child-centered approach* ta'lim jarayonida bolani faol subyekt sifatida ko'rishni talab qiladi. Unga ko'ra, bola o'z rivojlanishining markazida turadi, uning o'quv jarayoni tabiiy ehtiyojlar, individual qiziqishlar va shaxsiy tajribalar asosida tashkil etiladi. Bu yondashuv zamonaviy maktabgacha ta'lim falsafasining eng muhim insonparvar mezonlaridan biri hisoblanadi [4;56-b].

Buyuk Britaniyadagi maktabgacha ta'lim tizimi "Early Years Foundation Stage (EYFS)" deb nomlangan milliy standart asosida boshqariladi. Bu hujjat 2008-yilda ilk bor joriy etilgan bo'lib, 2021- va 2023-yillarda yangilangan. EYFS ta'limning to'rtta asosiy tamoyilini belgilaydi:

- har bir bolaning yagona va qayta takrorlanmas shaxs ekanligi;
- bolaning faol ishtirokchi va tajribaviy o'quvchi sifatida rivojlanishi;
- ijtimoiy muhit va oila bilan hamkorlikda ta'limning samarali bo'lishi;
- rivojlanishning turli bosqichlari o'zaro bog'liq va uzviy ekanligi.

Bu tamoyillar pedagogik jarayonda bolaning shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda individual va inklyuziv ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan. Ta'lim jarayonida "o'yin orqali o'qitish" — play-based learning — markaziy o'rinni egallaydi. Bu metod bolaning tabiiy qiziqish va tajriba orqali o'rganish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday yondashuv Vigotskiyning

“jamiyat orqali ong rivojlanishi” nazariyasi, Piajening kognitiv bosqichlar modeli hamda Brunerning konstruktivizm g’oyalari bilan chambarchas bog’langan.

Buyuk Britaniyada bolalar rivojlanishini faqat bilim olish bilan cheklab qo’yilmaydi, balki ularning emotsional barqarorligi, ijtimoiy munosabatlari va ongli xulq-atvori ham asosiy mezonlardan biri sifatida belgilanadi. EYFS tizimida bolalarning rivojlanishi yettita yo’nalishda baholanadi:

- shaxsiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanish;
- muloqot va til qobiliyati;
- jismoniy rivojlanish;
- savodxonlik (literacy);
- matematik fikrlash;
- dunyo haqidagi bilish faoliyati;
- san’at va dizayn orqali ifoda.

Bu yo’nalishlar bolani jamiyatga moslashtirish va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishga tayyorlashga qaratilgan. Ta’lim jarayonida bola va pedagog o’rtasidagi emotsional bog’lanish — “secure attachment” — ta’lim samaradorligining asosiy psixologik sharti sifatida ko’riladi. Psixolog Jon Boulbining bog’lanish nazariyasi bu modelning ilmiy asosini tashkil etadi.

Muhokama. O’zbekistonda maktabgacha ta’lim mazmuni milliy qadriyatlar va ilg’or pedagogik texnologiyalar uyg’unligi asosida qayta ko’rib chiqilmoqda. 2019-yilda yangilangan “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari” hamda “Ilk Qadam” davlat dasturi bola rivojlanishining asosiy yo’nalishlarini belgilab berdi. Bu dasturlarda bolaning shaxsiy, ijtimoiy va emotsional o’sishiga, nutq va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, estetik did va ijodiy salohiyatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Ayni paytda mamlakatda zamonaviy pedagogik yondashuvlar — STEAM, Montessori, Reggio Emilia, High Scope, Waldorf — kabi modellarning elementlari tadrijiy ravishda joriy etilayotgani kuzatilmoqda. Bu modellar Britaniya va Yevropa tajribalari bilan uyg’unlikda bola markazidagi ta’lim konsepsiyasini amalda tatbiq etish imkonini bermoqda. Masalan, ayrim maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “o’yin orqali o’rganish” va “tajribaga asoslangan rivojlanish” usullari joriy etilgan bo’lib, ular bolalarda mustaqillik, ijodkorlik va jamoada ishlash ko’nikmalarini shakllantiradi.

Maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda tarbiyachi va pedagog kadrlar malakasini oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. 2020-yildan boshlab Toshkent shahridagi Maktabgacha ta’lim va xizmat ko’rsatish sohasi ilmiy-tadqiqot instituti hamda hududiy markazlar orqali malaka oshirish kurslari yo’lga qo’yildi. Pedagoglar zamonaviy metodika, psixologiya, axborot texnologiyalari va inklyuziv ta’lim bo’yicha qayta tayyorlanmoqda.

Buyuk Britaniya maktabgacha ta’lim tizimining ilg’or jihatlarini O’zbekiston maktabgacha ta’limiga moslashtirish va joriy etish jarayoni faqat uslubiy yangilanish emas, balki konseptual, falsafiy va madaniy qiymatga ega bo’lgan murakkab ilmiy-amaliy jarayondir. Uning samaradorligi ilmiy tahlil, pedagogik tajriba va milliy an’analar uyg’unligiga asoslangan innovatsion mexanizmlarning to’g’ri ishlab chiqilishiga bog’liqdir.

Integratsiya jarayonining nazariy poydevori insonparvar ta’lim falsafasiga suyanadi. Buyuk Britaniya maktabgacha ta’lim tizimida bola shaxsi faol ijodkor, mustaqil fikrlovchi va jamiyatdagi teng huquqli subyekt sifatida qaraladi. Bu falsafa o’zining mohiyati jihatidan O’zbekiston milliy ta’lim konsepsiyasi bilan uyg’un, chunki mamlakatimizda ham ta’limning

asosiy vazifasi bolaning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy salohiyatini to'liq rivojlantirishdan iborat. Shu bois Britaniya tajribasini milliy tizimga joriy etishning falsafiy mezonlari sifatida subektivlik, madaniy meros bilan uyg'unlik, muloqot madaniyati va innovatsion inklyuzivlik tamoyillari asosiy o'rin tutadi.

Buyuk Britaniya tajribasining amaliy jihatlari asosan pedagogik innovatsiyalarning samarali tatbiq etilishida namoyon bo'ladi. Xususan, Britaniya maktabgacha ta'lim muassasalarida keng qo'llaniladigan STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi ta'lim jarayonini bolaning faol ishtirokida tashkil etishni nazarda tutadi. Bu model O'zbekiston sharoitida ham bolalarda mustaqil fikrlash, tajriba orqali o'rganish va ilmiy qiziqishni oshirishda samarali bo'lishi mumkin. Shuningdek, Britaniyadagi play-based learning ("o'yin orqali o'rganish") modeli bolalarning tabiiy qiziqishlariga suyanagan holda bilimlarni interaktiv faoliyat jarayonida egallashga imkon yaratadi. Ushbu usulni O'zbekiston maktabgacha ta'limida milliy o'yinlar, musiqa, teatr, xalq hunarmandchiligi va o'zbek madaniyat elementlari bilan boyitgan holda moslashtirish pedagogik jarayonning milliy va zamonaviy qirralarini uyg'unlashtiradi.

Buyuk Britaniyada bola rivojlanishida Montessori va Reggio Emilia metodikalari muhim o'rin tutadi. Montessori modeli bolaga tanlov va mustaqil qaror qabul qilish imkonini berib, uning tabiiy rivojlanish salohiyatini ochib beradi. Reggio Emilia esa estetik muhit, vizual ifoda va kommunikatsiya orqali hissiy tafakkurni rivojlantiradi. Bu modellarni O'zbekiston maktabgacha ta'limi tizimida joriy etish bolalarda ijodiy mustaqillik, estetik did va muloqot qobiliyatini kuchaytiradi.

O'zbekistonning ta'lim falsafasi asrlar davomida insonni komillikka yetaklovchi tarbiya, ma'naviyat va axloq qoidalariga tayanadi. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy kabi mutafakkirlar asarlarida bolaning tabiiy qobiliyatini rivojlantirish, uning jamiyatda faol subyekt sifatida shakllanishiga e'tibor qaratilgan. Shu jihatdan, Britaniyaning child-centered yondashuvi — bolani ta'limning markaziga qo'yish g'oyasi — milliy pedagogikadagi "inson qadri" tamoyili bilan mutlaqo uyg'un keladi. Uning zamonaviy tatbiqi bolaning faqat bilim oluvchi emas, balki ijodiy fikrlovchi va madaniy qadriyatlarni anglovchi shaxs sifatida kamol topishini ta'minlaydi.

Ilg'or tajribalarni milliy muhit bilan uyg'unlashtirishning birinchi mexanizmi — madaniy transformatsiya va adaptatsiya jarayonidir. Bu jarayon xorijiy metodikani to'g'ridan-to'g'ri qo'llash emas, balki uning mohiyatini saqlagan holda milliy tarbiya an'analari bilan bog'lashni anglatadi. Masalan, Britaniyada keng qo'llaniladigan "o'yin orqali o'rganish" (play-based learning) usulini O'zbekistondagi xalq o'yinlari, milliy musiqa, topishmoq va ertak elementlari bilan boyitish orqali milliy mentalitetga moslashtirish mumkin. Bunday yondashuv bolada nafaqat bilish qobiliyatini, balki milliy identifikatsiya va ma'naviy hissiyotni ham rivojlantiradi.

Ikkinchi muhim yo'nalish — pedagogik muloqot madaniyatini yangicha asosda rivojlantirishdir. Britaniya modelida pedagog va bola munosabati tenglik, hamfikirlik va ishonchga asoslanadi. Bu tamoyil O'zbekiston ta'lim muhitida ham ahamiyatli, zero an'anaviy tarbiyada ustozga hurmat va itoat ustuvor bo'lgan bo'lsa, zamonaviy sharoitda bu munosabatni hamkorlik va birgalikdagi ijodiy izlanish darajasiga ko'tarish lozim. Pedagogning roli buyruq beruvchidan ko'ra, maslahatchi va yo'l boshchiga aylanishi ta'lim muhitini demokratlashtiradi, bola shaxsini faol subyekt sifatida namoyon etishga sharoit yaratadi.

Uchinchi yoʻnalish — milliy qadriyatlar va zamonaviy texnologiyalar uygʻunligidir. Britaniyada taʼlim jarayoni raqamli muhitga juda kuchli integratsiya qilingan. Oʻzbekistonda bu tajribani milliy mazmunda amalga oshirish uchun elektron platformalarda milliy multimedialar kontentlar, xalq ijodiyoti asosidagi taʼlim ilovalari va interaktiv dasturlar yaratish maqsadga muvofiq. Masalan, bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan platformalar orqali bolalar milliy ertak qahramonlari orqali yozuv, hisoblash, muloqot koʻnikmalarini oʻrganishi mumkin. Buning orqali raqamli taʼlim muhiti ham milliy ruhiyat bilan uygʻunlashadi.

Shuningdek, ilgʻor tajribalarni moslashtirishda ota-onalarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Britaniya modelining ustun jihatlaridan biri — ota-ona, pedagog va bola hamkorligidir. Oʻzbekistonda ham anʼanaviy oilaviy munosabatlar tarbiyada hal qiluvchi rol oʻynaydi. Shu sababli, maktabgacha taʼlim muassasalarida ota-onalar uchun metodik seminarlar, treninglar va kuzatuv dasturlarini tashkil etish orqali ularni bola rivojlanishi jarayonining hamkor ishtirokchisiga aylantirish zarur. Bu yoʻl bilan taʼlim jarayoni faqat muassasa doirasida emas, balki oila muhitida ham davom etadigan uzluksiz tizimga aylanadi.

Natijada ilgʻor xorijiy tajribalarni milliy muhit bilan uygʻunlashtirish nafaqat taʼlim samaradorligini oshiradi, balki yangi, gʻibrid pedagogik madaniyatni vujudga keltiradi. Bu madaniyat bolada insonparvarlik, vatanparvarlik, ijtimoiy masʼuliyat va innovatsion tafakkurni uygʻun rivojlantiradi.

Xulosa. XXI asrda taʼlim tizimi jahon miqyosida raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirishning eng muhim instituti sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha taʼlim bosqichi shaxs rivojlanishining asosiy poyasi sifatida, bolaning ijtimoiy faolligi, maʼnaviy ongi va intellektual salohiyatini belgilab beruvchi dastlabki bosqich hisoblanadi. Ushbu maqolada Buyuk Britaniya maktabgacha taʼlim tizimining ilgʻor pedagogik gʻoyalari va innovatsion texnologiyalarini Oʻzbekiston taʼlim muhitiga moslashtirishning nazariy va amaliy mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, Britaniya modelidagi “child-centered”, “play-based” va STEAM yondashuvlari bola shaxsini faol ijodkor sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi va ularni milliy muhitga uygʻun holda joriy etish Oʻzbekistonda taʼlimning sifat bosqichini yangi darajaga olib chiqishi mumkin.

Britaniya maktabgacha taʼlim tizimining falsafiy asosi — insonparvarlik va individuallik gʻoyalari — Oʻzbekiston milliy pedagogikasidagi “inson qadri” konsepsiyasi bilan uygʻun ekanligi aniqlandi. Bu uygʻunlik ilgʻor xorijiy tajribani milliy mentalitet va qadriyatlar bilan integratsiya qilish uchun metodologik asos yaratadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Dewey J. *Democracy and Education*. — New York: Macmillan, 1916. — 434 p.
2. Rousseau J.-J. *Émile, ou De l'éducation*. — Paris, 1762. — 512 p.
3. Montessori M. *Il Metodo della Pedagogia Scientifica applicato all'educazione infantile nelle Case dei Bambini*. — Roma: S. Lapi, 1909. — 398 p.
4. Wood E. *Play, Learning and the Early Childhood Curriculum*. — London: SAGE Publications, 2013. — 240 p.
5. Edwards C., Gandini L., Forman G. *The Hundred Languages of Children: The Reggio Emilia Approach*. — Santa Barbara: Praeger, 2012. — 320 p.
6. Bruner J. *The Process of Education*. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. — 110 b

7. G.Xolmirzayeva. *Bo'lajak tarbiyachining nazariy va pedagogik tafakkurini rivojlantirishning pedagogik asoslar.*-Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2024.-243-248 b.
8. Холмирзаев Х.Н. Futurologik tafakkurda sun'iy intellektning namoyon bo'lishi // *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari = Actual Problems of Humanities and Social Sciences.* — 2025. — Vol. 5, Special Issue 9. — P. 1-19.
<https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/4082/3706>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).